

Loyiha nomi: “Alisher Navoiy ijodining horijda o‘rganilishi va targ‘iboti asosida ko‘p tilli multimedia to‘plamini yaratish”.

Loyiha raqami: STIRi (INN raqami): 504249130.

Loyihaning maqsadi: Mazkur loyiha ob‘ekti – Alisher Navoiy hayoti va ijodi hamda navoiyshunoslik. Loyihaning ilmiy ahamiyati shundaki, milliy madaniyatimiz va ma‘rifatimizni targ‘ib qilgan ulug‘ shoir Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ishonchli va muxtasar ma‘lumotlarni jamlab, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilib, jahon ilmiy jamoatchiligi e‘tiboriga havola etish, mazkur multimedia to‘plami vositasida Alisher Navoiy ijodiy merosi timsolida o‘zbek adabiyotini jahon kitobxonlari e‘tiboriga sazovor qilish, Navoiy talqin etgan qadriyatni an‘analarni namoyon etish, integratsiyalashuv jarayonida madaniy-ma‘naviy munosabatlarni mustahkamlash, o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlik, ezgulik asrlar davomida talqin etilganligini asoslash hamda o‘zbek ijodkori haqida uch tilli multimedia to‘plamini yaratish tadqiqotning bosh g‘oyasidir. Mazkur loyiha o‘zbek adabiyotini o‘rganishga bag‘ishlangan keyingi tadqiqotlarga keng yo‘l ochadi. Multimedia to‘plamida beriladigan ma‘lumotlardan mutaxassislar, tarjimonlar, horijlik tadqiqotchilar, kitobxonlar va talabalar unumli foydalanishi mumkin. Qayd qilinganlar ushbu loyihaning dolzarbligini belgilaydi.

Loyihada qo‘yilgan muammo O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Internet jahon axborot tarmog‘ida milliy kontentni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 14 avgustdagi VMQ-625-son, “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 3 martdagi VMQ-117-son Qarorining 8-bandi II-xatboshida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlashga, xususan, 2020 yildan boshlab universitetda dolzarb filologik ilmiy-texnik muammolar yechimiga bag‘ishlangan fundamental, amaliy va innovatsion loyihalar bajarilishini amalga oshirishga, shuningdek, yosh avlodni vatanparvarlik va xalqimiz tarixiga hurmat ruhida tarbiyalash, Alisher Navoiyning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan shaxs sifatidagi xalqaro obro‘-e‘tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosini saqlash, o‘rganish va keng targ‘ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga xizmat qiladi. Qolaversa, loyiha davomida qo‘lga kiritiladigan ilmiy yutuqlar va natijalar kelgusida ushbu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlari uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2020 yil 20 may kuni Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ida barpo etilgan Adiblar xiyobonida ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv chog‘ida bildirgan fikrlari, jumladan, ulug‘ shoir hayoti va ijodini dunyoda targ‘ib etish, avvalo, adabiyotni, adabiyotshunoslar, shoir va yozuvchilarni dunyoga tanishtirishga bog‘liq ekani haqidagi ta‘kidlari Adiblar xiyoboni portalini yaratishga ehtiyoj yuqoriligidan dalolat beradi.

Alisher Navoiy hayoti va ijodining ko‘p tilli multimedia to‘plami bobokalonimizning badiiy tafakkuri mahsuli bo‘lmish noyob durdonalarni dunyo hamjamiyatiga tanishtirish hamda targ‘ib etish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida*” 2016 yil 13 maydagi PF-4797-son Farmonida yurtimizda badiiy tarjima ishlarini yanada jonlantirish, bevosita o‘zbek tilidan chet tillarga mumtoz va zamonaviy adabiyot namunalari tarjima qilish, o‘zbek milliy adabiyoti hamda adabiyotshunoslik vakillari hayoti va samarali

faoliyatini horijiy mamlakatlarda targ'ib etish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish masalasi kun tartibiga qo'yilib, bu borada universitet zimmasiga qator vazifalar yuklatildi.

Ushbu loyiha maqsadi ayni muammolarni yechishga qaratilganligi bilan dolzarbdir.

Alisher Navoiyning ijodi va faoliyati insoniyatga va ma'rifatga xizmat qilishning noyob namunasi sifatida dunyo adabiyotshunosligida keng o'rganilmoqda. Uning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan va nashr etilgan. Multimediyada ushbu tarjimalar bir yerga jamlanadi.

Alisher Navoiy ijodiy merosi adabiy aloqalar aspektida turli xalqlar adabiyotshunosligida tadqiq etilgan. Multimediyada shoir ijodiy merosiga bag'ishlangan turli tadqiqotlar bir yerga jamlanadi.

Horijda olib borilayotgan tadqiqotlar asosida loyihani amalga oshirishda uch yo'nalishda ish olib borilishi rejalashtirilgan:

Birinchi yo'nalish – Eron, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Bangladesh olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hamda ushbu mamlakatlarda shoir haqida yaratilgan ilmiy asarlar, hikoyalar, romanlar, badiiy filmlar, muzeylar faoliyati tadqiq qilinadi. Bunda axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasining malakali mutaxassislari bilan hamkorlikda Alisher Navoiy hayoti va ijodining ko'p tilli multimedia to'plami yaratiladi (multimedia to'plamining dasturiy ta'minoti, dizayni va imkoniyatlari ustida ishlash). Mazkur loyiha doirasida Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida o'zbek, ingliz va fransuz tillarida ma'lumotlar, audio va videoroliklarni o'zida jamlagan elektron portal yaratiladi. Elektron portal veb texnologiyalar asosida ishlab chiqiladi. Unda veb dasturlashda qo'llaniladigan ASP.NET Core MVC 3.0.0 zamonaviy freymvorkidan va MS SQL Server ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimidan foydalaniladi. Ushbu freymvork yaratiladigan platformaning Linux va Windows operatsion tizimlarida muammosiz ishlashini ta'minlaydi. Tizimda ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash uchun ma'lumotlar bazasi yaratiladi.

Ikkinchi yo'nalish – loyihaning ilmiy tadqiqotlar qismi bo'lib, Turkiya, Ozarbayjon, Sharqiy Turkiston va barcha turkiy xalqlar adabiyotshunosligida Alisher Navoiy ijodiy merosi o'rganiladi va targ'ib qilinadi.

Bunda Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini, ulug' shoir tomonidan yaratilgan badiiy asarlarni o'rganish, shu paytgacha qadar ushbu yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va tarjima qilish masalalarini o'z ichiga oladi.

Uchinchi yo'nalishda Fransuz sharqshunoslari S. de Sasi, E. Katremer, F. Belen, Lui Aragon, rus sharqshunoslari V.V.Velyamino, I.N.Beryozin, M.Nikitskiy, V.Bartold tadqiqotlari asosidagi materiallar jamlanadi. Barcha kuzatishlardan foydalangan holda shoir hayoti va ijodi haqida ta'lim muassasalari hamda ta'limdan tashqari keng jamoatchilik uchun shoir ishtirokidagi hujjatli film va ko'rsatuvlardan foydalangan holda ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy multimediali film yaratiladi. O'zbekiston jahon madaniyatiga integratsiyalashayotgan hozirgi zamonda dunyo tadqiqotchilari va olimlarini, adabiyot ixlosmandlarini milliy adabiyotimiz, badiiy tafakkurimizda kechayotgan evrilishlar, Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan tanishtirish zarur. Afsuski, hozirgacha Alisher Navoiyning asarlari haqida mufassal ma'lumot beruvchi horijiy tillardagi tadqiqotlar yoki elektron manbalar yaratilmagan. Ushbu masalaning hal etilishi Alisher Navoiy hayoti va ijodini jahon miqyosida keng targ'ib etishga, jumladan, G'arb navoiyshunosligining hozirgi o'zbek adabiyotshunosligiga, aksincha, o'zbek navoiyshunosligining horij adabiyotshunosligiga ko'rsatgan ta'sirini o'rganishga, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarning samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.